



THE ROLE OF EXACT SCIENCES IN THE ERA OF MODERN DEVELOPMENT

REPUBLICAN SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE



Volume: 2 Issue: 9

SPEAKING VA LISTENING KO'NIKMALARINI OSHIRISH YO'LLARI

Niyozaliyeva Sevinch O'tkir qizi
*Samarqand davlat chet tillari instituti
talabasi*

Ilmiy rahbar: Nilufar Zubaydova

Annotatsiya: Chet tillarini o'rghanish jarayonida bu ko'nikmalar bir biri bilan chambarchas bo'g'liq hisoblanadi. Ushbu maqola chet tillarini o'rghanishda Speaking va Listening ko'nikmalari muhimligi va ularni turli xil usullar bilan rivojlantirish, bu skill lar bo'yicha yuzaga keladigan muommalarga yechim keltirilgan bo'lib, til o'rghanish jarayonida xatolardan qo'rqmasdan va o'z-o'zini rivojlantirishga urg'u beriladi va shuningdek, natijalari esa katta bo'lishi ta'kidlanadi.

Kalit so'zlar: Speaking, listening, muntazam mashq, tilni muhitda o'rghanish, so'z boyligi, talaffuz, intonatsiya, qayta tinglash, til o'rghanish ilovalari, muammo va yechimlar.

XXI asrda kommunikatsiya ko'nikmalar, ayniqsa chet tillarida, juda katta ahamiyat kas etmoqda. Dunyoda integratsiya jarayonlari kuchaygani sayin, boshqa tillarda ravon gapira olish va eshitganini to'g'ri tushunish ko'nikmalarining qiymati ortib bormoqda. Ushbu maqola Speaking (so'zlashish) va Listening (tinglash) ko'nikmalarini qanday qilib rivojlantirish mumkinligi haqida bo'ladi. Bu ko'nikmalar chet tilini o'rghanishda asosiy o'rin tutadi va ular bir-biri bilan chambarchas bog'liqdir.

Speaking (So'zlashish) ko'nikmasini rivojlantirish usullari. Muntazam mashq qilish, so'zlashuv ko'nikmasini oshirishning asosiy yo'li doimiy ravishda mashq qilishdir. Har kuni yangi so'zlar va iboralarni qo'llab gapirishga harakat qilish zarur. O'z fikrlaringizni bayon qilish va to'g'ri talaffuz qilish uchun muntazam ravishda dialoglar va monologlar ustida ishlash lozim. Tilni muhitda o'rghanish. Tilni to'g'ri va tez o'rghanish uchun uni asl muhitda qo'llash juda muhimdir. Agar imkoniyat bo'lsa, chet elliklar bilan suhbatlashish yoki tilni ona tilida gapiradigan kishilar bilan muloqot qilish Speaking ko'nikmasini sezilarli darajada oshiradi.

Bugungi kunda bu uchun onlayn platformalar mavjud bo'lib, til o'rghanishni tezlashtirishga yordam beradi. O'zingizni videoda yozish. O'z ovozingizni yozib, so'ngra qayta tinglash orqali o'z nutqingizdagi kamchiliklarni ko'rish va ularni to'g'irlash mumkin. Bu usul talaffuzni to'g'ri yo'lga qo'yishga yordam beradi. Shuningdek, bu o'z-o'zidan ishonch hosil qilishga, sahnada chiqishlarda yoki jamoat oldida gapirishda dadillikni oshirishga yordam beradi.

Til o'rghanish dasturlaridan foydalanish. Bugungi kunda ko'plab mobil ilovalar va onlayn platformalar so'zlashish ko'nikmasini rivojlantirish uchun samarali



THE ROLE OF EXACT SCIENCES IN THE ERA OF MODERN DEVELOPMENT

REPUBLICAN SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE



Volume: 2 Issue: 9

vositalar taqdim etmoqda. Masalan, Duolingo, Babbel yoki HelloTalk kabi ilovalar orqali chet tilini tezroq va osonroq o'rganish mumkin. So'z boyligini oshirish. So'z boyligi Speaking ko'nikmasining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Keng lug'atga ega bo'lgan odamlar ko'proq mavzularda gaplasha olishadi va o'z fikrlarini aniqroq ifoda etishadi. Shu sababli, har kuni yangi so'zlar yodlab, ularni gapirishda ishlatish zarur.

Listening (Tinglash) ko'nikmasini rivojlantirish usuli, doimiy ravishda tinglash amaliyoti. Listening ko'nikmasini rivojlantirish uchun muntazam ravishda eshitib turish lozim. Chet tilida podkastlar, audio kitoblar yoki radiolarni tinglash ushbu ko'nikmani tezda oshiradi. Tinglayotganda diqqatni talaffuz, intonatsiya va so'zlarning ma'nolariga qaratish zarur. Filmlar va seriallarni ko'rish. Chet tilidagi filmlar va seriallarni tomosha qilish Listening ko'nikmasini sezilarli darajada oshiradi. Ular tilning tabiiy tarzda qo'llanishini ko'rsatib beradi va gapiruvchilar qanday intonatsiyadan foydalanishini o'rganishga yordam beradi. Bunday tomosha qilish paytida subtitrlarni ishlatish mumkin, ammo vaqt o'tishi bilan subtitrlarni olib tashlab, faqat eshitish orqali tushunishga harakat qilish kerak. Va dialoglarni takrorlash va ko'rish, ma'lum bir dialogni qayta-qayta tinglash va uni eslab qolish, Listening ko'nikmasini kuchaytiradi. Bu usul orqali gapiruvchining talaffuzi va intonatsiyasini o'rganish mumkin. Shuningdek, tinglagen suhbatlaringizni takrorlash orqali Speaking va Listening ko'nikmalari bir vaqting o'zida rivojlanadi. Onlayn platformalarda tinglash mashqlarini bajarish. Tilni o'rganish uchun maxsus ishlab chiqilgan veb-saytlar va ilovalar Listening ko'nikmasini rivojlantirish uchun samarali hisoblanadi. Misol uchun, BBC Learning English va VOA Learning English kabi resurslar yordamida aniq talaffuz va eshitish mahoratini oshirish mumkin. Tabiiy muhitda tinglash:

Tinglash ko'nikmasi uchun muhim bo'lgan jihat – bu tilni tabiiy muhitda eshitishdir. Agar imkon bo'lsa, tilni ona tilida gapiradigan kishilar bilan uchrashuvlar uyushtirish yoki xorijiy mamlakatlarga sayohat qilish orqali Listening ko'nikmasini tabiiy yo'l bilan rivojlantirish mumkin.

Muammolar va yechimlar. Ko'plab til o'rganuvchilar so'zlashish va tinglashda qiyinchiliklarga duch kelishadi. Odatda, yangi so'zlarni tushunmaslik, tez gapiriladigan nutqni eshitib tushunolmaslik yoki so'zlashuvda kam ishtirot etish eng keng tarqalgan muammolar hisoblanadi. Bunday holatlarda, tilni o'rganishda bardoshli bo'lish va muntazam mashqlar qilish eng yaxshi yechimdir. Yana bir muhim jihat – bu xatolardan qo'rmaslikdir. Gapirayotganda yoki tinglaganda xato



THE ROLE OF EXACT SCIENCES IN THE ERA OF MODERN DEVELOPMENT

REPUBLICAN SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE



Volume: 2 Issue: 9

qilish tabiiydir va bu o‘rganish jarayonining bir qismidir. Xatolardan saboq olib, ular ustida ishslash tilni rivojlantirishga yordam beradi.

Xulosa: Speaking va Listening ko‘nikmalarini rivojlantirish doimiy mashq va muloqotni talab etadi. Chet tilida ravon so‘zlashish va eshitilgan nutqni to‘g‘ri tushunish – bu uzoq davom etadigan, ammo natijalari katta bo‘lgan jarayon. Muntazam mashqlar va tabiiy til muhiti bilan o‘zaro aloqa qilish til o‘rganuvchiga katta yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Brown, H. D. (2007). “Principles of Language Learning and Teaching”. Pearson Education.
2. Harmer, J. (2007). “The Practice of English Language Teaching”. Pearson Longman.
3. M Orzikulova, G Rustamova “Methods Of Improving Speaking Skills For Kids” Conference Proceedings: Fostering Your Research Spirit, 151-154, 2024
4. Rost, M. (2011). “Teaching and Researching Listening”. Pearson Education.
5. Richards, J. C., & Schmidt, R. (2013). “Longman Dictionary of Language Teaching and Applied Linguistics”. Routledge.
6. Jumayev, F. B., & Jumayev, B. N. (2023). Technology of Using of Didactic Games in English Language Lessons. Boshqaruv va Etika Qoidalari Onlayn Ilmiy Jurnali, 3(4), 112-115.
7. R. A Utkurovich, R. G Utkurovna. “Teaching English Language To Primary Level Pupils At School” Ijodkor O‘qituvchi 3 (36), 103-105, 2024
8. Underhill, A. (1994). “Sound Foundations: Learning and Teaching Pronunciation”. Macmillan Education.
9. Jumayev, F. B., & Jumayev, B. N. (2023). Ways to Improve Listening Skills Among Children. Ijtimoiy Fanlarda Innovasiya Onlayn Ilmiy Jurnali, 3(2), 129-131.
10. N.N. Zubaydova The importance of teaching vocabulary. International conference Bridge to science:Research works 100 (November 15 2019) San Francisco, USA.
11. Xolmanova, Z. (2023). Sun’iy Intellekt: Boris. Computer Linguistics: Problems, Solutions, Prospects, 1(1).
12. Jumayeva, M. (2022). Analysis Of The Views Of Scientists Of The Renaissance, Based On A Unique Approach To Pedagogy And Education And Upbringing. Science and Innovation, 1(5), 26-29.
13. Bekzodovna, J. M., & Akbarovna, D. G. (2023). Innovative Methods and Tools in Higher Education. Science and Innovation, 2(11), 708-715.



THE ROLE OF EXACT SCIENCES IN THE ERA OF MODERN DEVELOPMENT

REPUBLICAN SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE



Volume: 2 Issue: 9

14. Jumayeva, M., & Jumatova, B. (2023). Linguopragmatic Features Of Expressions Expressing Feelings In Uzbek And English Literary Texts. Science and innovation, 2(C12), 166-169.
15. Xolmanova, Z. Eski o 'zbek tiliga xos ayrim leksemalar semantikasi va lingvokulturologik xususiyatlari. O 'ZBEKIST, 38.
16. Jumayeva, M. B. (2023). Classifications of Cardinal Numbers and Ordinal Numbers in English And Uzbek. Ijtimoiy Fanlarda Innovasiya Onlayn Ilmiy Jurnali, 3(2), 132-134.
17. Mohira, J. (2023). Problematic Situations That Arise in Learning Foreign Languages and Their Solutions. International Journal of Recently Scientific Researcher's Theory, 1(2), 414-417.
18. Jumayeva, M. B. (2023). Chet Tillarini O'rganishda Ommaviy Axborot Vositalarining O'rni va Ahamiyati. Boshqaruv va Etika Qoidalari Onlayn Ilmiy Jurnali, 3(5), 240-242.
19. Dadaboyev, H., & Xolmanova, Z. T. (2015). Turkiy tillarning qiyosiy-tarixiy grammatikasi. Toshkent: Ilm Ziyo Nashriyot Uyi, 22.
20. Xolmanova, Z. (2022). Semantik Maydon Va Semantik To 'R Imkoniyatlari. Computer Linguistics: Problems, Solutions, Prospects, 1(1).
21. Makhmudova, G. N., & Gulomova, N. F. (2023). Unlocking the potential of the digital economy in the EAEU countries: identifying and overcoming obstacles. π -Economy, 16 (4), 7–25. DOI: https://doi.org/10.18721/JE_16401.
22. Гуломова, Н. (2022). Основные компоненты развития «умного» туризма в регионах. Направления развития благоприятной бизнес-среды в условиях цифровизации экономики, 1(01), 63-67.
23. Makhmudova, G., Gulomova, N., & Mirzaev, D. (2022). Legal aspects of cryptocurrency and blockchain technologies: Uzbekistan and foreign experience.
24. Sharifovna, R. S. (2022). Class Size And The Learning-Teaching Process In Upper Classes. Journal of new century innovations, 14(1), 86-98.
25. Ikramboyevna, A. D., & Ikramboyevna, S. D. (2023). The Ways of Forming Secondary Nomination in Uzbek Language and Its Impact on Linguistics.
26. Сулейманова, Н. М. (2017). Номинативный аспект речевого процесса. In Humanities and Social Sciences in Europe: Achievements and Perspectives (pp. 76-82).
27. Sharipovna, R. S. Peculiarities Of Teaching English In Secondary Schools In Uzbekistan. International Journal of Innovations in Engineering Research and Technology, (2), 1-5.